

TALABALARNI AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING AMALIYOTDAGI MAVJUD AHVOLI

Umedjanova Malika Lukmanovna

Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

umedjanovamalika@buxdpi.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarni aksilogik yondashuv asosida oilaviy hayotga tayyorlash borasidagi tadqiqot ishlari, dastur va o‘quv qo‘llanmalarini o‘rganish, oliy ta’lim mussasasi tizimida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning o‘ziga xos yo‘llari, metod va usullari borasida ma’lum tajribalar mavjud.

Tayanch so‘zlar: aksiologiya, ta’lim-tarbiya, oilaviy hayotga tayyorlashga doir yo‘llari, metod, oilaviy an’analar va urf-odatlar, sog‘lom turmush tarzi, nikoh, ota-onalar va farzand burchlari, dastur, o‘quv qo‘llanmalar.

Kirish. Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash bugungi taraqqiyot davrida dolzarb masala desak, mubolag‘a bo‘lmaydi va bu mavzu ilmiy asosga va mustahkam amaliyotga tayanadi. Bu masalaga doir pedagogik oliy ta’lim muassassalari misolida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash bo‘yicha bir muncha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan, ammo ularning muammosi ya’ni aksiologik yondashuv nazardan chetga qolgan. Olib borilgan tadqiqot ishlari, dastur va o‘quv qo‘llanmalarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim mussasasi tizimida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning o‘ziga xos yo‘llari, metod va usullari borasida ma’lum tajribalar mavjud. Bu tajribalar talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda bir muncha yordam beradi. Chunki yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlash uzlusiz bo‘lib, uni izchil davom ettirish va ilmiy-pedagogik asoslarini yaratish zamon talabidir.

Oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarni aksiologik yondashuv asosida oilaviy hayotga tayyorlash, ularda milliy qadriyatlar, oilaviy an’analar va urf-odatlarni qadrlash, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, nikoh, ota-onalar va farzand burchlari haqida amaliy ko‘nikmalar hosil qilish zamonaviy mustahkam oilaning garovidir. Pedagogika oliy o‘quv yurtlarida milliy tarbiya, nikoh, oila masalalari haqida nazariy ma’lumotlar ayrim gumanitar fanlar mazmunida o‘z aksini topgan. Ayniqsa, pedagogika nazariyasi va tarixi, milliy tarbiya asoslari, xalq pedagogikasi, oila pedagogikasi, ijtimoiy pedagogika, tarbiyaviy ish texnologiyalari, tarbiya fanini o‘qitish metodikasi kabi fanlarida bu mavzuga alohida o‘rin berilgan. Pedagogika nazariyasi va tarixi fanining tarbiya nazariyasi bobida aynan tarbiyaning umumiyligi metodlari, tarbiya turlari, oila tarbiyasi asoslari mavzulariga kiritilgan bo‘lib, tarbiya

metodlari mohiyati va uning tasnifi, ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari, faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini shakllantirish, tarbiya turlari, oila tarbiyasi, oilada bola tarbiyasi, ota-onaning burch va vazifalari haqida talabalarga ma'lumot beriladi. Bundan tashqari pedagogika nazariyasi va tarixi fanining II-bobi ya'ni, pedagogika tarixida VII asrdan IX asrning birinchi yarmigacha O'rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar mavusida Qur'oni Karim – axloqiy-falsafiy ta'limotlar manbai. Hadis ilmining paydo bo'lishi. Tasavvuf ta'limoti. So'fiylik ta'limotining ma'naviy hayotga ta'siri haqida nazariy bilimlarni egallaydi va Sharq mutafakkirlarning hayoti va faoliyatları o'rganilib boriladi. Ularning ta'lim-tarbiyaga oid asarlarida oila tarbiyasi to'g'risidagi fikrlari hozirgi kunda ham o'zini qadr-qimmatini yo'qotmagan. Ayniqsa, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida ta'lim-tarbiya masalalari. Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilik", Kaykovusning "Qobusnomा" asari – pandnomा asar sifatida, Abu Ali ibn Sino axloqiy tarbiya haqida. Ibn Sino bola tarbiyasi haqida "Tadbir al-manozil" ("Bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash"), Fariduddin Attor "Mantiq ut-tayr", "Pandnomा", "Ilohiynoma", "Ushturnomа", Muslihiddin Sa'diy "Guliston", "Bo'ston", Sayfiddin Boxarziy ruboilyar, Jaloliddin Rumiy "Masnaviyi ma'naviy", Nosiruddin Burhoniddin Rabg'uziy "Qissasi Rabg'uziy", Nosiriddin Tusiy "Axloqi Nosiriy", Aziziddin Nasafiy "Al-inson al-komil", Mahmud Shabustariy "Gulshani roz", Avfiy Buxoriy "Javomi ul-hikoyot", Pahlavon Mahmud ruboilyar, Xusrav Dehlaviy "Xamsa", Ziyovuddin Naxshabiylarning "To'tinoma" kabi didaktik asarlari, Muhammad Sodiq Qoshgariyning "Odob as-solihin" asari – yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni yorituvchi manba sifatida, Abdulla Avloniy merosining ahamiyati "Turkiy guliston yoxud axloq". Abdurauf Fitratning ta'lim – tarbiya haqidagi qarashlari kabi mabi mavzular mohiyatida oila tarbiyasiga, nikoh masalasida alohida o'rin qaratilgan. Ushbu asarlarning boshidan oxirigacha pand – nasihatga urg'u berilgan bo'lib, har bir talaba uni mukammal o'zlashtirib olishi zarur.

Oila va asosan yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammosiga bag'ishlab asrimiz boshida Abdurauf Fitrat xalqimizning oilaviy an'ana va urf-odatlarini, shuningdek, Sharq mutafakkirlarining ta'limotlarini o'rganish asosida "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" risolasini yaratdiki, bu asar hozirgi davrda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Fitrat shunday yozadi: "Bu xalqning harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib, izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi, zaif bo'lib, xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib, e'tibordan qolishi, o'zgalarga to'be, qul va asir bo'lishi bolalikdan o'z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog'liq"¹. Shuning uchun ham "Oila yoki oila boshqarish tartiblari"

¹ А.Фитрат«Оила ёки оила бошқариш тартиблари»Рисоласи 183;55-бет.

asarida Fitrat oila qurishning maqsad va vazifalari, uning moddiy-ma'naviy va huquqiy asoslari, er va xotin hamda uning turmush tarzi, ayol va erkakning oiladagi o'rni, burchi masalalarini bayon etadi. Asarning ikkinchi qismi farzand tarbiyasiga bag'ishlanadi.

Farzand tarbiyasida bolalarga go'daklik davridan badan tarbiysi, aqliy va axloqiy tarbiya berish, aksilogik yondashuvga asoslanish lozimligi haqida fikr yuritar ekan, pedagogik, psixologik va tibbiy jihatdan ilmiy-amaliy tavsiyalar beradi. Uning tavsiyalari hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Oila mavzusi hozirgi kunlarda ilmiy-tadqiqot ishlarining bosh mavzusi bo'lib hisoblanadi. Uning turli qirralari yoritilib, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlash bosh muammolardan biriga aylandi.

Masalan, A. Q. Munavvarovning "Oila pedagogikasi" monografiyasida¹ oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda milliy qadriyatlarva an'analarining ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyati, o'zbek oilalarning yosh avlodni milliy qadriyat asosida oilaviy hayotga tayyorlash uslubi va ta'sir ko'rsatish vositalari, ayniqsa, bolalarga hunar o'rgatishda o'zbek xalqining o'ziga xos tajribalari yoritiladi. Shuningdek, hozirgi davrda o'zbek oilalaridagi tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari (bitta yoki kam bolali, ko'p bolali oilalarda bola tarbiysi) va oilaviy tarbiyani takomillashtirish omillari hamda vazifalarini belgilab beradi. Bu borada ota-onalarga tarbiyaga oid bilim berish, oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish – oila muammosining davlat ahamiyati darajasiga ko'tarilganligidan dalolat berishi yoritiladi.

Oliy ta'lim islohotlarida yoshlarni milliy qadriyatlar, ajdodlarimizning boy tajribasi asosida tarbiyalashga keng imkoniyat yaratildi. Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzlusiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega.

Hozirgi davrda ayol va erkakdan oila va nikoh munosabatlarida yuqori darajadagi axloq-odob va psixologik-pedagogik tayyorgarlik hamda turmush madaniyati talab etiladi, shuning uchun ham yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlashni dastlabki yillardan boshlash taqozo etiladi. Shunga ko'ra yosh avlodda barcha fazilatlari tarkib topishi va boshqalarning xislatlarini baholay olishga o'rgatish ularni oilaviy hayotga tayyorlashning asosiy mohiyatini ifodalaydi, deydi oilashunos olim I. V. Grebennikov².

I. V. Grebennikov yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy, axloqiy, huquqiy, psixologik, fiziologik-gigienik, pedagogik, estetik, xo'jalik-iqtisodiy omillarini sanab o'tar ekan, ularni bir-biriga bog'liq holda amalga oshirishni nazarda

¹ Мунавваров А.К. «Оила педагогикаси. – Т.: Уқитувчи, 1994. –112 б.

² Оилавий хаёт этикаси ва психологияси. И.В. Гребенников таҳрири остидаю – Т.Ж ТДПУ, 2001. – 10 б.

tutadi. Shuning uchun ham shaxs, uning qobiliyati, xarakteri, temperamenti, o‘z-o‘zini tarbiyalashi, jamiyat va oilaning bir-biriga o‘zaro ta’siri, shaxs va oila, shaxslararo munosabatlar psixologiyasi, munosabat va muomala madaniyati, yigitlar va qizlar munosabatlarini axloqiy asoslari, ayollari, nazokati, tashqi va ichki go‘zallik o‘rtoqlik va do‘stlik hamda uning milliy asoslari, muhabbat- sevishganlarning hulq madaniyati, uni insonning umumiy madaniyati bilan bog‘liqligi, sevgi ham tarbiya vositasi ekanligi, sevgida xato qilmaslik haqida ma’lumot beriladi. Eng yirik muammolardan bo‘lgan nikoh va oila mavzusiga, nigohga tayyorgarlik masalalari, uning huquqiy asoslariga alohida e’tibor qaratadi¹.

Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta’lim, umumiy ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni taqozo etadi.

Oila, ta’lim muassasalari, davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar, ota-onalarda boy milliy tarbiyaviy merosimiz to‘g‘risida bilimlar shakllanadi, ularni o‘rganish, saqlash, targ‘ib qilish, o‘rgatish orqali milliy fazilatlarning avloddan-avlodga bezavol o‘tib borishi ta’minlanadi. Konsepsiyaning amalga oshirilishi jamiyatda ma’naviy-axloqiy muhitning sog‘lom va barqaror bo‘lishiga salmoqli hissa qo‘sadi. O‘zaro hamkorlik ishlarini boshqarish uchun joylarda o‘z tarkibiga mahallalar faollari, obro‘li ota-onalardan, o‘quv-tarbiya muassasalarining tajribali xodimlaridan, mahalla hududida joylashgan turli tashkilotlarning vakillaridan iborat muvofiqlashtiruvchi jamoatchilik kengashlari tuziladi. Jamoatchilik kengashining zimmasiga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib, uning tarkibida turli yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatadigan kichik tashabbuskor guruhlar shakllantiriladi. Oqilona maqsad bolalarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga imkon berish bilan birga, ularning qiziqishlari darajasini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. А.Фитрат«Оила ёки оила бошқариш тартиблари»Рисоласи 183;55-бет.
2. Мунавваров А.К. «Оила педагогикаси. – Т.: Укитувчи, 1994. –112 б.
3. Оилавий хаёт этикаси ва психологияси. И.В. Гребенников таҳрири остидаю – Т.Ж ТДПУ, 2001. – 10 б.
4. Гребенников И.В. Основы семейной жизни [Учеб.пособ.] – М.: «Просвещение», 1991. – 158 с.

¹ Гребенников И.В. Основы семейной жизни [Учеб.пособ.] – М.: «Просвещение», 1991. – 158 с.